


YILDUZ TURKUMILARI



Buxoro 2018



Ushbu risola Vatanimizni mustabit tuzum qaramligidan ozod qilib, tarixan qisqa davrda Oʻzbekistonni jadal va barqaror surʼatlar bilan rivojlanishi Mustaqil Oʻzbekiston davlatining asoschisi, buyuk davlat va siyosat arbobi, oʻzbek xalqining ulugʻ va atoqli farzandi, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti ***Islom Abdugʻaniyevich Karimov tavalludining 80 yilligi*** hamda Ulugʻ alloma, jahon astronomiyasi taraqqiyotiga oʻzining salmoqli hissasini qoʻshgan shox va olim ***Ulugʻbek Muxammad Taragʻay tavalludining 624 yilligiga*** bagʻishlanadi.

TAYYORLOVCHILAR:

Buxoro Davlat Universiteti “FIZIKA” kafedrasida katta oʻqituvchisi

Narzullayev Muxiddin Nasullayevich.

Buxoro Turizm kolleji oliy toifali fizika va astronomiya oʻqituvchisi

Raupova Iroda Barakayevna

TAQRIZCHILAR:

Buxoro Davlat Universiteti “FIZIKA” kafedrasida dotsenti, fiz-mat fanlari nomzodi

Niyozxonova Bashorat Eshmatovna

Buxoro Muxandislik Texnologiyalari Instituti Tabiiy fanlar kafedrasida dotsenti,
fizika – matematika fanlari nomzodi.

Sharipov Mirzo Zorirovich

BuxDu fizika – matematika fakulteti ilmiy kengashining 2017 yil mart oyidagi ilmiy kengashi N 5 bayonnomasi va Turizm kollejining 2018 yil yanvar oyi Kengashi qarori bilan chop etishga ruxsat etildi.

Buxoro-2018

AMALIY ISHLARINI BAJARISHGA DOIR KO'RSATMALAR.

Ushbu qo'llanma ta'lim tizimida o'tiladigan umumiy astronomiya fanidan dasturida ko'rsatilgan amaliy topshiriqlar asosida tashkil qilingan. Bu ishlar ma'ruza olgan bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirishni ta'minlashga qaratilgan. Ular yulduzlar osmonini o'rganishda, kosmik obe'ktlarni ko'zatishta kerak bo'ladigan turli qo'llanmalar va asboblari: astronomik har yilliklar, kalendarlar, yulduz atlaslari, xaritalar, osmon sferasi modeli va boshqalar bilan tanishtiradi ularning ba'zilar astronomik kuzatishlarda, teodolit bilan ishlash, meridian yo'nalishini aniqlash, vaqt o'lchamlarining turli sistemalariga doir masalalarni yechishni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu qo'llanmada keltirilgan amaliy ishlar, kuzatishlar asosida kosmik obe'ktlarni amalda o'rganish usullari bilan ham talabalarni tanishtiradi.

Har bir amaliy ishida, uning mazmuni, bajarish metodlari, zarur bo'lgan adabiyotlar ko'rsatilgan va talabalar bajarishi kerak bo'lgan vazifalar belgilangan. Vazifalar bir necha punktlardan iborat.

Ko'pchilik punktlardagi topshiriqlar to'rtta variantda (ular qavoli raqamlar, masalan 1),2),3),4) bilan belgilangan) tuzilgan. Har bir variantdagi topshiriq to'rtta (ikki bo'lim) talabalar bajarishiga muljallangan.

Tajriba kuzatishicha, bir variantni bajarayotgan talabalar uzaro fikr almashib, ishni ixchamroq va aniqroq bajaradilar. Amaliy ishlarining ko'proq qismi ilmiy kuzatishlar asosida tuzilgan yulduz xaritalari, atlaslar, kalendarlar va qullanmalar bilan ishlashni, osmondagi yoritqichlarni mustaqil kuzatish asosida hosil qilingan hulosalar bilan taqqoslab borishni nazarda tutadi.

Ishlarda keltirilgan vazifalarni talabalar to'g'ri bajarishi uchun ishda asos qilib olinadigan kerakli ma'lumotlarni turli qo'llanmalardan izlab topish talab etiladi.

Talabalar o'z variantdagi vazifalarni bajarish yuzasidan ishlarning oxirida ko'rsatilganday formada hisobot beradilar.

I."Yulduz turkumlarini xaritalardan o'rganish metodikasi"

Dars maqsadi: sferik astronomiyaga oid amaliy ko'nikmalari tizimini shakllantirish.

Ta'lim vazifasi:

umumta'limiy: quyidagi tushunchalarni shakllantirish:

- astronomik kuzatishlarva o'lchashlarni tadqiq qilishning astronomik metodlari va burchak o'lchovchi astronomik asboblari (balandlik o'lchagich, teodolit, yulduz turkumlarini tasvirlash uchun ramka va h.k.);
- osmon yoritgichlari va yulduz turkumlari haqida;
- osmon sferasi, uning asosiy chiziq va nuqtalarini;
- kosmik hodisalar haqida: Erning Quyosh atrofida harakati, o'z o'qi atrofida aylanma harakati va uning natijasi - samoviy hodisalar: yoritgichlarning chiqishi, botishi va yillik ko'rinma harakat, kul'minatsiyasi, Erning turli joylaridan ko'rinish.
- joyda yo'nalish olishning astronomik metodlari va joyning geografik koordinatlarini aniqlash haqida ;
- yoritgichlarning yarqiroqligi va yulduz kattaligi shkalasi haqidagi astrofotometriyaning boshlang'ich tushunchalari.

Tarbiyaviy: ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; astrometrik bilimlarni qo'llanilishining amaliy usullari haqidagi materiallarni bayon qilishda politexnik va mehnat tarbiyasi; asosiy yulduz turkumlari va yulduzlar osmonining hamda samoviy yoritgichlar haqidagi afsonalar bilan tanishishda estetik tarbiyalash. Yulduz turkumlarini nomlanishi bilan tanishishda vatanparvarlik tarbiyasi.

Rivojlantiruvchi: quyidagi tushunchalarni shakllantirish:

- yulduzlar osmonini surilma xaritasi, yulduz atlasi, samoviy hodisalarni kechishi, yoritgichlarning ko'rinish shartlari va holatlarini aniqlash uchun astronomik taqvimlar bilan ishlay olish ko'nikmalari;
- osmonda Qutb yulduzini topa olish va unga ko'ra dunyo tomonlarini aniqlay olish ko'nikmasi;
- teodolit, balandlik o'lchagich, yulduz turkumlarini tasvirlash uchun ramka kabi o'lchov asboblari bilan foydalana olish;
- joyning geografik kengligini olam shimoliy qutbini gorizontdan balandligi va yoritgichlar kulminatsiyasidan foydalanib aniqlash;
- yilning ma'lum vaqtida ,ma'lum joyda ko'rinadigan yulduz turkumlari va ravshan yulduzlarni topa olish;
- ma'lum yulduzlar yarqiroqligiga ko'ra osmon yoritgichlarining yarqiroqligini aniqlash.

O'quvchilar quyidagilarni bilishi shart: osmon sferasining asosiy aylanalari, chiziqlari va nuqtalarining holatini; kuzatish joyida yilning ma'lum vaqtida ko'rinadigan asosiy yulduz turkumlari, ularning eng ravshan yulduzlari va ularning ba'zi bir tavsiflari; astronomik kuzatishlar asosida geografik koordinatlarni aniqlashni; burchak o'lchovchi asboblari bilan ishlash qoidalarini.

O'quvchilar quyidagilarni bajara olishi shart: osmonda qutb yulduzini topa olish va Qutb yulduziga qarab, hamda yulduzlar osmoni xaritasi yordamida yo'nalishni tanlay olish; osmonda yilning ma'lum vaqtida shu joyda ko'rinadigan asosiy yulduz turkumlarini va ularning eng ravshan yulduzlarini topa bilish; yulduzlar osmoni surilma xaritasi, yulduzlar atlasi, ma'lumotnomalar,

Astronomik taqvimlardan osmon yoritgichlarini ko`rinish shartlari va ularda kechadigan samoviy hodisalarni aniqlay olish uchun foydalana bilish.

Ko`rgazma qurollar va taqdimotlar:

Asbob va materiallar: yulduzlar osmoni surilma xaritasi (har bir o`quvchiga); A.A. Mixaylov yoki A.D. Marlenskiylarning yulduz osmoni atlas; shu yil uchun astronomik taqvim; yulduz turkumlarini chizish uchun ramka, yulduz ko`rsatgich; balandlik o`lchagich yoki maktab teodoliti; durbun yoki maktab teleskopi; fonar, soat, qalam, qog`oz.

Uyga vazifa: Oldingi dars materiallarini takrorlash.

Dars rejasi:

Da rs bosqichi	Ish mazmuni	Ishl ash metodi	Vaq t, min
1	Bilimlarni tekshirish va dolzarblash. Osmon sferasida asosiy aylanalar, chiziqlar va nuqtalarni modeldan tushuntirish.	Og'zaki so`rov, suhbat	5
2	Qutb yulduziga qarab shoyda orientir olish, Qutb yulduzining shu joyda gorizontdan balandligiga qarab joyning geografik kengligini aniqlash.	suhbat, o`qituvchi hikoyasi	10
3	Kuzgi yulduzlar osmonining asosiy yulduz turkumlari va ularning eng ravshan yulduzlari bilan tanishish		15
4	Yulduzlarning yarqiroqligi va yulduz kattaliklari shkalasi bilan tanishish.		10

Materialni bayon qilish metodikasi.

Dars avvalida o`qituvchi suhbat davomida o`quvchilarning astronomik kuzatish metodlari va o`ziga xoslik tomonlari, burchak o`lchovchi asboblari, yulduz turkumlari va osmon sferasining asosiy aylanalari, chiziqlari va nuqtalari haqidagi bilimlarini tekshiradi va o`quvchilarga o`tkaziladigan kuzatishlar haqida hikoya qilib beradi.

Dars materialini o`qituvchi hikoyasi shaklida yoki suhbat shaklida bayon qilinishi maqsadga muvofiq. Dars jarayonida o`qituvchi o`quvchilarning savollariga ham e`tibor qilib, o`zi ham ularga savollar va oddiy topshiriqlar berib borib, ularning astronomik bilimlari darajasini aniqlab va o`zlashtirishlarini nazorat qilib boradi. Yulduz turkumlari haqida hikoya qilayotganda o`quvchilarga yulduz turkumlari- bu yulduzlardan tuzilgan chizma emas, balki aniq chegaralangan osmonning bir qismi va undagi ob`ektlar bir biri bilan hech qanday fizikaviy bog`lanmaganligi eslatib, har bir turkumdagi elementlar grek yoki lotin alifbosi harflari bilan belgilanganligi, hamda har bir turkumdagi eng ravshan yulduz shaxsan nomlanganligini aytib o`tish kerak bshladi. O`quvchilar yana bir bor "yulduz kattaligi" tushunchasi yulduzlarning o`lchami bilan hech qanday munosabatda emasligini o`zlashtirishlari kerak.

1.Olam qutbi va osmon sferasining asosiy aylanalari,chiziqlari va nuqtalarini holatini aniqlash.



O`quvchilarga quyidagicha savol beramiz: "osmonda Qutb yulduzini qanday topamiz ?" Albatta ular buni bilmaydilar; ko`pchilik Qutb yulduzi osmonda eng ravshan yulduz deb hisoblaydilar. O`qituvchi Katta Ayiq yulduz turkumini topishni so`raydi (ko`pchilik o`quvchilar uni "Katta cho`mich" nomi bilan bol'shinstvo uchenikov znayut ego pod svoim nazvaniem ili kak bilan biladilar) va o`qituvchi tushuntiradi:



1-chizma. Qutb yulduziga qarab yo`nalish olish.

Qutb yulduzini topish uchun Katta Ayiq yulduz turkumini ikkita α va β yulduzlari orqali to`g`ri chiziq o`tkazib uning davomida shu ikki yulduz orasidagi masofani 5 marta qo`yib chiqamiz. SHu erda to`g`ri chiziq yonida ravshanligi "cho`mich" yulduzlarinikidek bo`lgan yulduz aynan mana shu -Qutb yulduziga kelamiz. (1 chizma). Qutb yulduzini topishning yuqoridagi usulini 2-3 marta takrorlab o`quvchilardan ularning tushunganlarini so`raymiz.

O`quvchilarga olam qutbining, osmon sferasining asosiy aylanalari, chiziqlari va nuqtalarini tushuntiramiz. Bunda osmon sferasi modelidan foydalangan ma`qul. Tik chiziq modelini uchiga yuk bog`langan ip uni xayolan cheksizgacha uzaytirsak osmon sferasiga **zenit** nuqtada kesib o`tadi. Tik chiziq taxminan Er radiusi davomi bilan, **matematik gorizont** esa Er geografik gorizont bilan ustma-ust tushadi(nima sababdan abstrakt ideal matematik gorizont real geografik gorizont bilan mos kelmasligini sababini tushuntirish kerak bo`ladi: sferiklikning o`lchami va sirt egriligi chegaralanganligi sabab). eslatish kerakki **SHimoliy Qutb** taxminan Qutb yulduzi bilan ustma ust tushadi (undan taxminan $0,51^0$ olisda) – ya`ni osmonda Qutb yulduzini topib, olamning shimoliy qutbini topgan bo`lamiz. Dunyo tomonlarini qanday aniqlash mumkin? – deb so`raymiz. O`quvchilar: Qutb yulduzi shimol tomonda bo`lsa unga orqamizni o`girib tursak biz janubga ([1-chizma](#)). Xayolan **Osmon**



meridiani tekisligini o'tkazamiz: u 3 ta nuqta orqali- kuzatuvchi ko'zi, zenit va olamning shimoliy Qutbi orqali o'tadi, hamda gorizontni shimol va janub nuqtalarda kesadi. Er sirti orqali janub nuqtadan shimolga qarab o'tkazilgan chiziq osmon meridiani proektsiyasi-**yarim kun chizig'i** deyiladi. (uni polda bo'r bilan chizib yoki kichik toshchalarni joylashtirib ko'rsatgan ma'qul). O'quvchilarga kompas yordamida aniqlangan dunyo tomonlari haqiqiy haqiqiy geografik dunyo tomonlari bilan mos kelmasligini va uning sababini tushuntirish kerak bo'ladi.

Osmon ekvatorini osmon sferasidagi holatini o'quvchilar yulduzlar osmonining surilma xaritasi yordamida o'zlari aniqlashlari mumkin. (xaritada somon ekvatori bo'ylab joylashgan yulduzlar orqali). Boshqa usul: o'quvchi to'g'ri burchakli uchburchakni shunday joylashtiradiki uning birta yog'i SHimoliy qutbni nishonga olsin(Qutb yulduzi): u holda pastki yog'ining buralishi osmon ekvatori tekisligining holatini ko'rsatadi.

Geografik kenglikni aniqlashning yanada soddaroq usuli oddiy burchak o'lchovchi asbob yordamida Qutb yulduzini gorizontdan balandligini o'lchashdir. O'lchashlarni bir necha bor takrorlab, uning o'rtacha qiymatini va xatolik kattaligini aniqlash kerak bo'ladi.

2. Asosiy yulduz turkumlari va nisbatan ravshan yulduzlar bilan tanishish. **Yulduz kattaligi shkalasi bilan tanishish.**

Osmon sferasining sutkalik aylanishi va yoritgichlarning kul'minatsiyasini kuzatish.

YUlduzlar osmonining 15 sentyabr' 21 soatdagi manzarasi beriladi. Janub tomonda boshqa yulduzlar orasidakatta yozgi-kuzgi uchburchak deb ataluvchi uchta ravshan yulduz ajralib turadi. Bu uchburchak Lira, Oqqush va Burgut yulduz turkumlarining eng ravshan yulduzlari tashkil qilib asosan yoz-kuz oylarida yaxshi ko'rinadi. YOzgi-kuzgi uchburchakning yuqorigi uchida–Vega yulduzi joylashgan bo'lib u Lira turkumining eng ravshan α yulduzi. Vega –shimoliy osmonning ravshan yulduzlaridan biri, 1836 yil rus astronomi V.YA.Struve tomonidan ungacha bo'lgan 26,1 yor.yil. ga teng masofa aniqlangan birinchi yulduz. Vega – sirtidagi harorati 10600 K bo'lgan issiq oq yulduz bo'lib, Quyoshning o'lchamidan 3 marta katta. U atrofida sayyoralar tizimi shakllanadigan gaz-chang protosayyora diski bilan o'ralgan. Bir necha million yildan so'ng Vega atrofida sayyoralar aylanib boshlaydi. Lira turkumi xira yulduzlardan tashkil topgan to'rtburchak shaklini hosil qiladi.

YOzgi-Kuzgi uchburchakning yuqorigi o'tkir uchini Oqqushning α yulduzi -Deneb tashkil etadi(arabchadan Oqqushning "dumi" degani). **Deneb** – o'lchami bizni Quyoshimizdan 35 marta katta bo'lib sirtidagi harorati 9800 K bo'lgan issiq oq gigant. Krestsimon Oqqush qanotlari keng yoyilgan holda Er tomon uchmoqda. Qadimgi greklar aytishicha Oqqush bu xudo Zevsning o'zi bo'lib, u oqqush shaklida Erdagi sevgilisi bilan uchrashuvga ketmoqda deyiladi. Oqqush "Boshi" Lebedya – eng chiroyli qo'shaloq yulduz Oqqush β si **Al'bireo**.

YOzgi-Kuzgi uchburchakning pastki o'tkir uchida – Burgutning α si bo'lgan Al'tair joylashgan bo'lib, yaqin yulduzlardan biri (16,3 yor. Yil) Quyoshning o'lchamidan 2,2 marta katta va 8 marta ravshanroq issiq oq yulduz ($T = 8400$ K). Burgut Oqqushdan farqli yuqoriga uchmoqda va o'z tumshug'ida g'alaba belgisi bo'lgan-palma shoxini olib ketmoqda. (bu Al'tairning ikki tomonidagi ikkita xira yulduzcha). Pastdagi to'rtta yulduz- yoyilgan qanotlar va Burgut dumini tashkil etadi.



Liraning tepasida Ajdarhoning boshini tashkil qiladigan to'rtburchak joylashgan, Ajdarhoning o'zi esa Kichik Ayiqni o'ragan holda samoda izg'ib yurmoqda. Ajdarho – shimoliy yarim sharning eng yovvoyi turkumlaridan biri. YOzgi-kuzgi uchburchak ichida Qaldirg'och, O'qotar va Del'fin turkumlari xira ko'rinuvchan.

YOzgi-kuzgi turkumlarning boshqa yulduzlariga e'tiboringizni qarating:

Janubiy-sharqiy tomonda Pegas yulduz turkumini ko'ramiz – kvadratni tashkil qiluvchi to'rtta yulduz, uning yuqorigi o'ng tomonidagi uchida uchburchak shaklida 3 ta xira yulduz joylashgan, pastki o'ng uchida esa 4 ta yulduzdan iborat "qanot" bukiladi. Kvadratning chap yuqori uchidan boshlangan yulduzlar zanjiri Andromeda turkumi. Andromedadan chaproqda va yuqorida o'z chiroyi bilan bezatilgan stul shaklini eslatuvchi – Persey turkumi joylashgan. Perseydan o'ngroqda to'ng'arilgan "M"(yoki lotincha "W") harfini eslatuvchi- Kassiopeya turkumi joylashgan. Kassiopeyadan o'ngroqda pastda xira yulduzlardan tashkil topgan beshburchak shaklida TSefey turkumi o'rnatilgan. Andromeda ostida 3 ta yulduzdan jakllangan uncha katta bo'lmagan kamtar Qo'y turkumi joylashgan. Uning pastida Baliqlar, yana pastroqda – Kit turkumi joylashgan. Unda qirmiziroq Kit θ si Mira(lotinichadan "ajoyib")– o'z ravshanligini 332 sutkada 28 000 marta o'zgartiruvchi uzoq davrli o'zgaruvchan yulduz e'tiborli. Pegas va Burgut o'rtasida , ulardan pastroqda –Qovg'a va Tog' echkisi o'rnatilgan. SHimoliy-sharqiy tomonda gorizont yaqinida ravshan sarg'imir Voznichey α si Kapella yonib turibdi.

Siz ajoyib Andromeda, uning tug'ishganlari – e'tiborli Kassiopeya va qat'iysiz TSefey, qo'rqinchli, vashqy Kit, mard Persey va uning qanotli oti Pegas haqidagi afsonalarni bilasizmi? Mana u, qorong'u kuz osmoni yulduz turkumlarinomlangan qadimgi grek afsonalari qahramonlari xuddi avvalgidek

Gorgon meduzasi ko`zini pirpiratadi – Persey stulchasi o`ng oyoqchasi pastdan ikkinchisi o`z ravshanligini tutilib o`zgartiruvchi yulduz Algol', Perseyning β si (arabchaga "Dev" yoki "Dev ko`zi"). O`quvchilarga bu afsonani hikoya qilib berish maqsadga muvofiq yoki hikoya qilib berishni biror bir o`quvchiga topshirish yanada maqsadga muvofiq. (topshiriqni oldindan berish kerak).

Janubi-g'arb tomonda gorizontga og'gan holda "bahorgi" Volopas turkumi janubga tomon egilgan tayoqni yoki asosida ravshan porlovchi Volopas α si bo`lgan Arktur kristallni eslatadi. Arktur – qirmizi gigant va Quyoshdan 26 marta ulkan ammo undan ko`ra sovuqroq (5000 K atrofida); ungacha 35,9 yor.yili. Volopasdan chaproqda – SHimoliy Toj turkumi – yulduzlaridan tashkil topgan supurgi. SHimoliy Toj va Burgut yulduz turkumlari orasida – asosan xira yulduzlardan tashkil topgan Iloneltuvchi yulduz turkumi joylashgan. Uning ustida, Liradan o`ngroqda, "C" harfini eslatuvchi Gerkules yulduz turkumi joylashgan.

Topshiriq: Quyidagi yulduz turkumlarni esda saqlang: Katta va Kichik Ayiq, Lira, Oqqush, Burgut, Pegas, Andromeda, Persey, Kassiopeya.

Keng xira yulduzlar kamaridan tashkil topgan Samon Yo`li Burgut, Oqqush, Kassiopeya, Persey yulduz turkumlari bo`ylab yoyilgan. Samon Yo`li milliardlab yulduzlarni birlashtiruvchi yulduz sistemamiz-Galaktikamizni tashkil etadi. Uning markazi O`qotar yulduz turkumida bo`lib janubiy-g'arb tomonda gorizont ostiga kirgan.

YAna bir bor Katta Ayiq yulduz turkumiga e`tiborni qaratamiz. Ko`zingizni tekshiramiz: "dumdan" ikkinchi o`rinda joylashgan Katta Ayiq x yulduzi yonida kichik yulduzchani ko`ryapsizmi? Agar uni ko`ra olsangiz, sizni ko`zingiz sog'lom, qadimda arab olimlari o`z o`quvchilarini va Amur Temur askarlarini ko`zlari shu yulduzga qarab tekshirilgan. Bu yulduzlarning nomlari Mitsar ("Ot") va Al'kor ("CHavandoz"). Mitsar karrali yulduz. Zamonaviy ma'lumotlarga ko`ra Gallaktikamizning , 50 % dan to 70 % yulduzlari qo`shaloq yulduzlar bo`lib, 10 % ga yaqini- karrali.

YUlduzlarning rangiga diqqatni qarating: Vega, Deneb, Al'tair ko`kimtir - Oq, Kapella sarg'imtir, Arktur – qirmizi. YUlduzlarning rangi ularning haroratiga bog'liq: eng qaynoq yulduz – ko`kimtir, eng sovug'i – qizil. Quyosh sirtidagi harorati 6000 K ga teng bo`lgan sariq yulduzlar sinfiga taalluqli. Bizni ko`zimiz atmosferamizning birmuncha salbiy ta'siriga ko`ra yulduzlarning ranglar farqini qo`shimcha kuchaytiradi.

Siz e`tibor berganingizdek osmonda ba`zi yulduzlar boshqalariga qaraganda ravshanroq porlaydi. SHuning uchun, yulduzlar Erdan turli masofalarda joylashgan, bir birlaridan ham o`lchamlari, ham sirtidagi haroratlari bilan farqlanadi. Ikki ming yillar ilgari qadimgi grek olimi Gipparx yorqinlik darajasi bo`yicha yulduzlarin 6 "yulduz kattaligiga" ajratgan. eng yorqin yulduzlarin birinchi kattalikka kiritgan, eng xiralarini – oltinchi kattalikka kiritgan. Har bir yulduz kattalik keyingisidan 2,5 martaga farq qiladi. 5 yulduz kattaligi orasi yulduz yorqinliklarining 100-karrali farqiga mos keladi.

Teleskopning kashf qilinishi bilan insonlar yanada xiraroq yulduzlarni ham kuzatish imkoniyatiga ega bo`ldilar va yulduz kattaliklari shkalasiga tuzatish kiritdilar: zvezdi, oltinchi kattalikdagi yulduzdan 2,5 marta xiraroq yulduzlarni ettinchi kattalikdagi yulduz deb atadilar va h.k. Zamonaviy eng kuchli teleskoplar

qurollanmagan ko'z bilan ko'rinadigan yulduzlardan milliard marta xira bo'lgan 28 yulduz kattaligigacha teng ob'ektlarni ko'rish imkonini beradi.

Birinchi kattalikdagi yulduzdan 2,5 marta yorqinroq "nolinchi" kattalik, undan ham yorqinroqlariga manfiy qiymat berildi: "-1" yulduz kattaligi, "-2", "-3" va h.k. eng yorqin yulduzlardan biri Sirius(Katta Itning α si) $-1,2$ yulduz kattaligiga ega. Oy To'lin Oy fazasida -12 yulduz kttaligiga, Quyosh $-26,8$ yulduz kattaligiga ega.

Topshiriq: Agar Al'tair va Deneb yulduzlari birinchi kattalikdagi yulduzlar bo'lsa, Vega va Qutb YUlduzining yorqinligini aniqlang.

Qarang: biz siz bilan gaplashganimizcha, sharqda yulduzlar bir oz baland ko'tarildi, g'arbda esa, aksincha, ular pastga tushibva ba'zilar gorizont ostiga cho'mib ketgan. Siz qanday o'ylaysiz. Nima sababdan bu yuz beradi?

Erning o'z o'qi atrofida g'arbdan sharqqa tomon aylanishi natijasida yulduzlar osmonining olam qutbi atrofida sharqdan g'arbga qarab aylanishini o'quvchilarga quyidagicha namoyish qilish mumkin. Teleskopni osmon ekvatori yaqinidagi biror bir yulduzga yo'naltiramiz-g'arbga siljib, yulduz tezgina yulduz teleskopning ko'rish maydonidan sharqqa tomon ketib qoladi (teleskopda to'ng'arilgan tasvir);qutb yulduzi yaqinidagi yulduzlar teleskopning ko'rish maydonidan bir oz sekinroq ketib qoladi.

Teleskop yoki durbinni 2-3 ravshan yulduzga (masalan; Vega,Kapella, Arktur) yo'naltiring va o'quvchilar diqqatini yulduzlarning rangiga qarating. Teleskop ularni kattalashtirmagan holda ravsharoq qilib ko'rsatadi,ularni "kattalashtirmaydi", balki yorug'ligini yig'ib, ko'rinish burchagini orttiradi. O'quvchilarga, yulduzlar nuqtaviy yorug'lik manbalarining tabiiy modeli ekanligini, va hatto eng katta quvvatli teleskoplarda ham ular yorug' nuqta sifatida ko'rinishiga e'tiborlarini qaratish kerak.

O'quvchilarga yana 2-3 ob'ektni teleskopdagi tasvirini ko'rsatgan ma'qul: qo'shaloq yulduzlar (Oqqush β si, Mitsar, Andromeda g si) va yulduz to'dalari: sochilgan Perseyning c va h si va sharsimon M13 (yoki M15).

TOPSHIRIQ. YUlduzlar osmonining surilma xaritasi bilan ishlash:

1. O'qituvchi hikoya qilib bergan yulduz turkumlarini toping.
2. Bir soatdan keyin qaysi yulduz turkumlari gorizont ostiga cho'madi.
3. YUlduz turkumlarini tasvirlash ramkasida quyidagi ob'ektlarni tasvirlang; Katta va Kichik Ayiq; Pegas va Andromeda; Kassiopeya va Persey.
4. Hozirgi vaqtda qaysi yulduzlar zenitda yoki uning yaqinida kul'minatsiyaga keladi; qaysi yulduzlar hozirda yuqori kul'minatsiyada va qaysilari quyi kul'minatsiyada.

II.YULDUZLARNING KICHIK ATLASLARI va XARITALARI BILAN ISHLASH.

ISHNING MAQSADI: Yuiduzlarning kichik atlaslari bilan tanishish va ulardan osmonni o'rganishda foydalanish.

KERAKLI QO`LLANMALAR: A.D.Marlenskiy “Учебный звёздный атлас”, издание государственного учебно-педагогического издательство министерство просвещения Россия.1958 год.А.А.Мехайловнинг “Звёздный атлас” издательство. 1958г.

QISQACHA NAZARIYA.

Yulduzlarning kichik atlaslari osmondagi turli obyektlarni o`rganish uchun mo`ljallangan qo`llanma hisoblanadi.

Bunday qo`llanmalardan biri A.A.Mexailovning “Звёздный атлас”i to`rtta xaritadan iborat. Bu qo`llanma qurollanmagan ko`z bilan ko`rib bo`ladigan (5,5 yulduz kattaligigacha bo`lgan) osmoning shimoliy yarim sferasidagi hamma yulduzlarning tasviri tushirilgan . U M.M.Dagayevning “Лабораторный практикум по курсу астрономии” kitobida batafsil tasvirlangan.

Biz bu yerda A.D.Marlenskiy tuzgan atlas bilan tanishamiz. A.D.Marlenskiyning atlası 20 ta xaritadan iborat bo`lib, osmonning shimoliy va janubiy yarim sharlarida oddiy ko`z bilan ko`rinadigan (5,75 yulduz kattaligigacha bo`lgan), yulduzlarni va kichik teleskoplarni, jumladan (bnoklda) kuzatiladigan, astronomlar uchun qiziqarli bo`lgan obyektlarni o`z ichiga oladi.

Bunday obyektlarning rasmlari va fotosuratları atlas xaritalarida beriladi. 1-xaritada yulduzlarning $\delta=70^\circ$ og`ishdan  $\delta=+90^\circ$  bo`lgan soxasi ifodalangan, 2-7 xaritalarda og`ishları  $\delta=+20^\circ$  og`ishdan $\delta=+70^\circ$ og`ishgacha bo`lgan sohalar ko`rsatilgan. 8-13 xaritada og`ishları $\delta=-20^\circ$ dan $\delta=+20^\circ$ gacha bo`lgan ekvator sohasidagi yulduzlar, 14-19-xaritalarda og`ishlarda $\delta=-20^\circ$ dan $\delta=-70^\circ$ gacha bo`lgan sohadagi yulduzlar va oxirgi 20 xaritada og`ishları $\delta=-70^\circ$ dan $\delta=-90^\circ$ gacha janubiy qutbgacha bo`lgan sohadagi yulduzlar va boshqa obyektlar ko`rsatilgan.

1-xarita markazi olamning shimoliy qutbi ($\delta=+90^\circ$), radial to`g`ri chiziqlar og`ish aylanmalari, konsentrik aylanalar esa sutkalik parallellarini ifodalaydi. Xaritani chegaralab turuvchi ( $\delta=+70^\circ$ ) bo`ylab radial chiziqlar yonida yozilgan raqamlar (0,1,2,3,...,23) mazkur raqam og`ishlarining soatlarda ifodalaydigan  $\alpha$ =to`g`ri chiziqlarini bildiradi. 0-soatlik og`ish aylanasi bo`ylab yozilgan raqamlar ( $70^\circ, 80^\circ, 90^\circ$ ) esa mazkur osmon parallellarini graduslarda ifodalangan og`ishlarni ko`rsatadi. Olamning janubiy qutbini ifodalovchi 20 xaritaning tuzilishi xuddi 1-xarita tuzilishi kabidir.

2-7 xaritalardagi og`ish aylanalari va parallellari mos xolda vertikal va gorizonta yo`nalishda o`tkazilgan chiziqlar bilan ko`rsatilgan. Og`ish aylanalari yonida (Xaritalarning ustki va pastki chegaralari bo`ylab) yozilgan raqamlar, (Masalan, 2-xaritada:1,2,3,4,) yoritkichlarning α -to`g`ri chizishlarini, parallellar yonida (Xaritaning o`ng va chap chegarasi bo`ylab) yozilgan (2-

xaritada: $20^{\circ}, 30^{\circ}, 40^{\circ}, 50^{\circ}, 60^{\circ}, 70^{\circ}$) sonlar ularning δ -og'ishlarini ko'rsatadi. (α, δ) ifodalovchi bu raqamlar oralig'i bir necha teng bo'laklarga bo'lingan. Bu maydaroq bo'laklarning qiymatini baholash uchun ikkita qush og'ish yoki sutkalik parallel aylanalariga mos soat yoki graduslar farqini shu oraliqdagi bo'lakchalar soniga bo'lish kerak. Masalan, 2-xaritada 3^h va 4^h lik og'ish aylanalarining soat o'lchovi farqi $\alpha = 4^h - 3^h = 1^h = 60^m$: bu oraliq teng 6 bo'lakka bo'lingan. Demak har bir bo'lakning α bo'yicha bahosi, ya'ni xaritaning α bo'yicha aniqligi $\alpha/6 = 60^M/6 = 10^m$ bo'ladi. Xaritaning ikkita qushni parallellari orasidagi (burchak o'lchovidagi) farqni, shu oraliqdagi bo'laklari soniga bo'lsak, xaritaning δ boyicha aniqligi topiladi. Masalan, 10° va 20° lik parallelligining burchak o'lchovidagi farqi $\delta = 20^{\circ} - 10^{\circ} = 10^{\circ}$ teng. Bu oraliq 10 bo'lakka bo'lingan. Demak, 2-xaritaning δ bo'yicha aniqligi $-\delta/10 = 10/10 = 1^{\circ}$ ekan. Yulduzlarning atlasidagi xaritalar yonida (o'ng tomondagi) turli obyektlarning shartli belgilari ko'rsatilgan. Ular quyidagicha ifodalangan:

- • • Yulduzlarning (ularning ko'rinma kattaliklari 0,76 dan 1,76 gachalari 1 deb, 1,26 dan 1,76 gachalari 1,5 deb, 1,76 dan 2,26 gachalari 2 deb va hokazo deb qabul qilingan).
- Qo'shaloq va karrali yulduzlar: doirachaning diametri qo'shaloq yulduzni tashkil etuvchilarning ko'rinma yulduz kattaliklari yig'idisini ifodalaydi.
- Spektral qo'shaloq yulduzlar.
- O'zgaruvchan yulduzlar: bo'yalgan ichki doiracha ravshanlik minimumidagi yulduz kattaligiga mos keladi.
- Yangi yulduzlar: xaritalarda bu belgi yonida yangi yulduz chaqnash yili ko'rsatilgan.
- Metior oqimlarining radianti.
- Yulduzlarning tarqoq to'dalari.
- Sharsimon to'dalar.
- Planetar tumanliklar.
- Diffuz tumanliklar.
- Gallaktikalar.

Xarita ustida ko'k rang bilan bo'yalgan polosa (yo'l) Somon Yo'lini ifodalaydi.

Xaritaning chap tomonidagi turli kattalikdagi qora doirachalar yonidagi sonlar yulduz kattaligini ifodalaydi. Yulduz kattaliklari $m=0,5$ aniqlik bilan berilgan. Biror yulduzning yulduz kattaligini aniqlash uchun yulduzning xaritadagi kattaligini etalon doirachalar bilan taqqoslanadi. Masalan, 3-xaritada tasvirlangan Savr (1-jadvalga qarang) yulduz turkumining α yulduzi (Aldebaran) ning yulduz kattaligi $m=1$, Aravakashning α -si uchun $m=2,5$ deb olish mumkin. Xaritada $m=5,5$ gacha bo'lgan yulduzlar tasvirlangan.

Atlasdagi har bir xaritaning chap tomonidagi betlarda yorug' yulduzlar va boshqa kosmik obyektlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar asosan Bechvar katalogidan olingan va tubandagi jadval ko'rinishida beriladi.

obyektning belgisi	obyektning nomi	ekvatoryal kordinatlari	YULDUZLARNING									
			Ko`rinma yulduz	Spektral sinfi	Temperaturasi	Yorqinligi	Radiusi ($R_0=1$)	Yillik parallaksi	Yorug`lik yilida o`tkazgan masofasi	Nuriy tezligi	Xususiy harakati	Qo`shimcha

Birinchi, "obyektning belgisi" grafasida yulduzlarni yulduz turkumida belgilovchi harflar va yulduz to`dalari, tumanlar va gallaktikalar kabi obyektning nomlari beriladi.

Quyosh, Oy va sayyoralarining ekvatoryal koordinatalari to`xtovsiz o`zgarib turganliklaridan, ular xaritalarda ko`rsatilmagan. Aslida, hatto xaritada ko`rsatilgan obyektning ekvatoryal koordinatalari ham asta-sekin (asosan protsessiya tufayli) o`zgarib boradi. Shuning uchun xaritalar setkasi va koordinatalar ma`lum epoxa uchun tuziladi. A.A.Mixaylov va A.D.Marlenskiy kichik atlaslaridagi xaritalar epoxasi uchun 1950 yilning boshi olingan.

Vazifa.

1. Atlasning har bir varag`ida ifodalangan belgilarning, yulduz turkumlari va kosmik obyektlar haqidagi ma`lumotlarni, xarita chegaralarini va hokazolarni e`tiborga olib, yulduzlarning kichik atlas bilan tanishib chiqing.

2. Yulduz atlasidagi har bir xaritaning ekvatoryal koordinatalari α, δ bo`yicha berilgan chegarasini va aniqligini toping.

3. Atlasning xaritalardan

- 1) Orion,
- 2) Aravakash,
- 3) Xo`kizboqar,
- 4) Oqqush

yulduz turkumlaridagi eng yorug` uchtadan yulduzning shartli belgisiga qarab, ularning turini (tavsifini), ya`ni o`zgaruvchan, qo`shaloq yoki oddiy yulduz ekanligini, ekvatoryal koordinatalarini va ko`rinma yulduz kattaliklarini ( $m$ ) taxminiy aniqlang. Mazkur yulduz turkumlari tushgan xaritalarga qarashli jadvallardan foydalanib, shu yulduzlarning aniq ekvatoryal koordinatalarini, ko`rinma yulduz kattaliklarini va uzoqliklarini yozib oling. Yorug`roq yulduzlar bizga yaqinroq turadi deyish mumkinmi?

4. 1) Katta Ayyiq, 2) Javzo, 3) Lira, 4) Katta It yulduz turkumlaridagi

- a) o`zgaruvchan,

b) qo'shaloq yulduzlarning,

v) tumanliklarning,

g) gallaktiklarning

sonini hisoblang, qo'shaloq va o'zgaruvchan yulduzlar orasidan eng yorug'larining nomini va yulduz kattaliklari $-(m)$ ni aniqlang.

5. Atlasdagi xaritalardan foydalanib:

1) Yerga eng yaqin turgan yulduzlardan shimoliy yarimshardagi Siriusning va janubiy yarimshardagi Sentavr yulduz turkumi α yulduzining,

